

## FUTBOL: TARIXI, ASOSIY QOIDALARI VA GLOBAL AHAMIYATI

**Meliqulov Davronjon To‘ychiyevich**

Toshkent davlat agrar universiteti jismoniy tarbiya va  
sport kafedrasi o‘qituvchisi  
davronjonmeliqulov5@gmail.com

## FOOTBALL: HISTORI, BASIC RULES AND GLOBAL IMPORTANCE

Melikulov Davronzhon Tuychiyevch

Teacher of the Department of Physical Culture and  
Sports of Tashkent State Agrarian University  
davronjonmeliqulov5@gmail.com

## ФУТБОЛ: ИСТОРИЯ, ОСНОВНЫЕ ПРАВИЛА И ГЛОБАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Меликулов Давронжон Тўйчийевч

Преподаватель кафедры физической культуры и спорта  
Ташкентского государственного аграрного университета  
davronjonmeliqulov5@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Futbolning tarixi , qoidalari, rivojlanishi va global ahamiyati keltirib o‘tiladi. Maqolada futbolning kelib chiqishi Angilyada zamonaviy futbolning tashkil topishigacha bo‘lgan rivojlanish jarayoni ko‘rib chiqilgan. Asosiy e’tibor o‘yin qoidalariga qaratilgan bo‘lib , jamoa tarkibi ,o‘yin davomiyligi , qoida buzilishlari kabi muhim masalalar yoritilgan . Shuningdek ,futbolning butun dunyo bo‘ylab millionlab insonlarni birlashtiruvchi va xalqaro munosabatlarni mustahkamlovchi sport turi sifatida global ahamiyati ham ta’kidlangan. Shuningdek futbolning faqat sport turi emas,balki ijtimoiy va madaniy hodisa ekanligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar :** Futbol tarixi, zamonaviy futbol, futbol qoidalari, gol, jarima zarbalar, global ahamiyati ,xalqaro sport, jahon championati, FIFA , sariq kartochka, qizil kartochka , sog‘lom turmush tarzi, futbol musobaqlari , millatlararo musobaqalar , futbolning ijtimoiy roli.

**Annotation:** This article explores the history, rules, development, and global significance of football. It reviews the origins of the game, from early forms to the establishment of modern football in England. The main focus is placed on the rules of the game, including team composition, match duration, and rule violations. Additionally, the article highlights football’s role as a global sport that unites millions of people around the world and strengthens international relations. Furthermore, it emphasizes that football is not only a sport but also a social and cultural phenomenon.

**Keywords:** History of football, modern football, football rules, goal, penalty kicks, global significance, international sport, World Cup, FIFA, yellow card, red card, healthy lifestyle, football tournaments, international competitions, social role of football.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются история, правила, развитие и глобальное значение футбола. Описывается процесс становления футбола — от его истоков до формирования современной игры в Англии. Основное внимание уделяется правилам игры, таким как состав команды, продолжительность матча и нарушения правил. Также подчёркивается роль футбола как международного вида спорта, объединяющего миллионы людей по всему миру и укрепляющего международные отношения. Кроме того, отмечается, что футбол — это не только спорт, но и социальное и культурное явление.

**Ключевые слова:** История футбола, современный футбол, правила футбола, гол, пенальти, глобальное значение, международный спорт, чемпионат мира, ФИФА, жёлтая карточка, красная карточка, здоровый образ жизни, футбольные турниры, международные соревнования, социальная роль футбола.

## Kirish

Futbolga o‘xhash o‘yining kelib chiqishi bu miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Hozirgi zamonaviy futbol 1863-yilda Angliyada kelib chiqqan. Futbol uyishmasi tomonidan kelib chiqqan qoidalar asosida yaratilgan. FIFAg a ko‘ra futbolga o‘xhash va ilmiy dalillarga ega bo‘lgan dastlabki o‘yin miloddan avvalgi 300-200 yillarda Xitoyda harbiy mashg‘ulotlar uchun o‘tkazilgan cuju sport turi hisoblanadi.O‘rtasidagi Yevropada top o‘yini haqida birinchi ma’lumot IX asrga tegishli Nenniusning Brittonum tarixi asarida uchraydi.Uelsning shimoliy qismlarida yozilgan asarida to‘p o‘ynayotgan bir guruh bollar haqida so‘z boradi.Bu o‘yinda deyarli hech qanday qoidalar mavjud bo‘lmagan bu o‘yinda o‘yinchilar chegarasi bo‘lmagan va yuzlab odamlar ishtirok etishi mumkun bo‘lgan.Angliyadagi futbolga o‘xhash o‘yining Fransiyada ham uchratishgan.Ushbu o‘yin Soule, cholle yoki choule deb atalgan bu o‘yin haqidagi ma’lumotlar 1147-yilga tegishli. Italyada paydo bo‘lganda bu o‘yin turi Calcio fiorentino deb nomlangan bu sport turida maqsad to‘pni raqib jamoa darvozasiga yo‘naltirish edi. To‘pni nazorat qilish, uni jamoadoshiga uzatish va darvozaga yo‘naltirish uchun qo‘l va oyoqdan foydalanish erkin edi FIFA ning ta’kidlashicha, bu futbolga o‘xhash barcha sport turlari bugungi futbol bilan bevosita bog‘liq emas edi. Zamonaviy futbolning paydo bo‘lishi va tarqalishi. Zamonaviy futbol qoidalari XIX asr o‘rtalarida Anglyadagi xususiy maktablarda turli qoidalar bilan o‘ynalib kelingan futbol shakllariga asoslanadi. Zamonaviy futbolga o‘xhash birinchi to‘p o‘yinlaridan biri italyan kalchosi edi. 14-asrdayoq ommalashgan ushbu sport turini yaqinroq tasavvur qilish uchun qoidalarni ko‘rib chiqsak: o‘yin 50 daqiqa davom etadi va uzunligi taxminan 80 metr, eni 40 metr bo‘lgan qumli maydonda o‘tkaziladi. Oq chiziq bilan maydon teng yarmiga ajratiladi. Panjara bilan

o‘ralgan keng maydonning belgilangan hududlari esa darvozalar etib belgilanadi. Bellashuv davomida to‘pni tananing har qanday qismi bilan harakatlantirishga ruxsat beriladi, lekin ko‘pincha bu qo‘llar bilan amalga oshiriladi. To‘pni darvoza to‘riga aniq yo‘llash muhim. Bu amalga oshmasa, raqiblarga yarim ochko beriladi. Goldan keyin raqiblar darvozalarni o‘zgartiradilar. Har bir jamoada 27 nafardan futbolchi bo‘ladi, jarohatlangan yoki chetlatilgan futbolchilarning o‘rniga maydonga boshqa o‘yinchilar tushmaydi.

Har bir jamoa tarkibi 15 nafar hujumchi, 5 nafar yarim himoyachi, 3 nafar himoyachi va 4 nafar darvozabondan iborat bo‘ladi. Raqibga qaraganda ko‘proq gol urgan jamoa g‘alaba qozonadi. Mazkur bahs qo‘polliklar ko‘pligi bilan boshqa o‘yinlardan ajralib turadi. Boisi, barcha o‘yinchilar o‘zaro bir-birlari bilan urishib, raqib himoyasini bo‘sashtirishga harakat qilishadi. Bellashuv davomida ikki raqib futbolchisi o‘zaro yakkama-yakka urishishga tayyorligini bildirsa, bunga ruxsat berilgan. Biroq o‘yinni biroz yumshatadigan qoidalar ham yo‘q emasdi. Masalan, yiqilgan futbolchini urish qat’iyan man etilgandi. Bellashuvda qoidalarga amal qilinishini maydondagi 6 nafar va uning tashqarisidag

O‘yin qoidalari Xalqaro assotsiyasi kengashi (IFAB) tomonidan ishlab chiqildi va tasdiqlandi ,IFAB tarkibidagi FIFA (4 ovoz) ,shuningdek

Angliya ,Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya va Ues futbol assosiyalarining vakillari kiradi .Rasmiy o‘yin qoidalaring eng so‘nggi ishlab chiqilgan nashri 2013-yil 1-iyun sanasi bo‘lib ,17 ta qoidadan iborat.

- 1-qoida : O‘yin maydoni
- 3-qoida: O‘yinchilar
- 4-qoida: O‘yinchilarning kiyinishi
- 5-qoida: Hakam
- 6-qoida: Boshqa o‘yin qoidalari
- 7-qoida: O‘yindan tashqari holat
- 8-qoida: O‘yinchilarning qoidabuzarliklari va noto‘g‘ri xatti-harakatlari
- 9-qoida: Erkin zARBalar
- 10-qoida: Penalti tepish
- 11-qoida: To‘pni maydonga tushirish
- 12-qoida: Darvozaga gol zarbasi
- 13-qoida: Burchak zarbasi

Futbolda penaltilar seriyasi

Raqib o‘yinchisi zARBani amalga oshirayotganda darvozabon darvozaga gol o‘tkazmaligi talab etiladi. Futbolda penaltilar seriyasi quyidagi qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi: jamoalar 11 metr masofadan raqib darvozasiga 5 marta zarba berishadi, barcha zARBalar turli o‘yinchilar tomonidan amalga oshiriladi ya’ni bir o‘yinchi

ikki marta tepishi mumkin emas. Agar 5 ta zarbadan keyin penalti hisobi teng bo‘lsa, jamoalar g‘olib aniqlanmaguncha penalti tepishda davom etadilar.

### O‘yindan tashqari holat

Agar o‘yinchi to‘pdan ko‘ra raqib darvoza chizig‘iga yaqinroq bo‘lsa va raqibning ikkinchidan oxirgi o‘yinchisiga, shu jumladan darvozabonga yaqinroq bo‘lsa, o‘yinchi o‘yindan tashqari holatida deb hisoblanadi.

### Sariq va qizil kartochkalar

Sariq va qizil kartochkalar o‘yinchilarni qo‘polik va sportga mos kelmaydigan xatti-harakatlari uchun hakam tomonidan beriladigan kartochkalardir. Sariq kartochka ehtiyyotkor xarakterga ega va futbolchiga quyidagi hollarda beriladi:

- qasddan qo‘l to‘pi uchun;
- vaqt o‘ynash uchun;
- hujumni buzish uchun;
- hushtak oldidan temsa, jonli devordan ogohlantirishsiz chiqish (to‘g‘ridan-to‘g‘ri erkin zarba);
- qo‘pol o‘yin uchun;
- sportga xos bo‘lmagan xatti-harakatlar uchun;
- hakam bilan nizolar, bahslangani uchun;
- simulyatsiya uchun;
- hakamning ruxsatisiz o‘yinni tark etganligi yoki o‘yinga kirganligi uchun.

Futbol — bu oddiy o‘yin emas, balki global madaniy hodisa, jamiyatlar va xalqlarni birlashtiruvchi kuchli ijtimoiy vositadir. Bugungi kunda futbol dunyoning deyarli har bir burchagida o‘ynaladi, tomosha qilinadi va sevib kuzatiladi. Uning global miqyosdagagi ahamiyati ko‘plab sohalarda o‘z aksini topgan.

Birinchidan, futbol xalqlarni birlashtiruvchi sport turi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Jahon Championati yoki Olimpiya o‘yinlaridagi futbol musobaqalari turli madaniyat va millatlarni umumiy tuyg‘u — sportga bo‘lgan muhabbat atrofida to‘playdi. Bu kabi tadbirlar xalqaro do‘slikni mustahkamlashda va madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ikkinchidan, futbol iqtisodiyotga katta ta’sir ko‘rsatadi. Dunyodagi yirik futbol klublari — “Real Madrid”, “Manchester United”, “Bayern Munich” kabi jamoalar milliardlab daromadga ega bo‘lgan kompaniyalardek faoliyat yuritadilar. Ular homiylik, televizion huquqlar, bilet savdosi, mahsulotlar (forma, sharflar, sovg‘alar) orqali ulkan daromadlar oladilar. Bundan tashqari, futbol turizmga ham katta hissa qo‘shadi. Masalan, chempionat o‘tkazilayotgan mamlakatga millionlab turistlar tashrif buyuradi.

Uchinchidan, futbol ijtimoiy hayotda ham muhim rol o‘ynaydi. U ko‘plab yoshlar uchun motivatsiya manbai bo‘lib, sport orqali hayotini o‘zgartirgan insonlar soni juda ko‘p. Ayrim futbolchilar kambag‘allikdan chiqib, dunyo miqyosidagi mashhurlikka

erishgan. Ular yoshlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, futbol gender tengligi, irqiyadolat va nogironligi bor insonlarning sportga qo‘shilishiga ham yordam beradi.

To‘rtinchidan, futbol sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantiradi. Dunyo bo‘ylab millionlab bolalar va kattalar futbol orqali jismoniy faoliy bilan shug‘ullanadi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimlariga yukni kamaytiradi va sog‘lom jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Futbolning global ahamiyati uning faqat sport emas, balki madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlardagi ta’siri orqali ko‘rinadi. U insoniyatni birlashtiruvchi, kuchli va samarali vosita sifatida bugungi kunda o‘z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. FIFA rasmiy sayti  
Ma’lumotlar: Futbolning global tarqalishi, Jahon Championati statistikasi  
Manba: <https://www.fifa.com>
2. World Economic Forum – “The economic power of football” maqolasi  
Ma’lumotlar: Futbol va global iqtisodiy ta’sir  
Manba: <https://www.weforum.org/>
3. „History of Football“. FIFA. 6 ekim 2014da asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 29 nisan 2013.
4. *A History of the University of Cambridge: 1750-1870* (İngilizce). Cambridge University Press, 1997 — 669-bet. ISBN 0521350603.
5. *Wiki, Sport „History of Football briefly 1939-45“* (inglizcha). *SportWiki* (8-may, 2019-yil). Qaraldi: 25-may 2022-yil.
6. *ERIN, BLAKEMORE „Where Did Soccer Start? Archaeology Weighs In.“* (inglizcha). *National Geographic* (8-may, 2019-yil). Qaraldi: 25-may 2022-yil.
7. *ERIN, Football „Encyclopaedia“* (inglizcha). *Spartacus Educational* (8-may, 2019-yil). Qaraldi: 25-may 2022-yil.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000
9. Safarov V. A., Match dlinoyu v 40 let, Toshkent, 1996
10. Imomxo‘jayev A., Futbol – quvonchim, dardim, faxrim, Toshkent, 1996